Ikkinchidan, ayrim hollarda morfemalarning fonemik tarkibida o‘zgarishlar kuzatiladi, bu holat morfologik variantlik (allomorflik) orqali yuzaga chiqadi. Masalan:

• bor → bor-di;
• kel → kel-di;
• ket → ket-di.

Bu yerda -di morfemasi bir xil grammatik vazifani bajarayotgan bo‘lsa-da, oldidagi fonema bilan fonetik uyg‘unlikni ta’minlash uchun talaffuzda moslashadi.

Uchinchidan, ayrim fonemik o‘zgarishlar yangi morfemik birliklar hosil qilishda asos bo‘ladi. Masalan:

• ol → olib → olib kel;
• bor → borib → borib kel.

Bu misollarda morfemalar fonetik darajada fonema almashinuvi orqali birikib, yangi leksik birliklar hosil qiladi, ya’ni, derivatsiya jarayoni fonetik asosga ega bo‘lgan morfemalardan tashkil topgan [4;88–89-b.].

Shuningdek, tahlillar natijasida fonologik jarayonlar, ayniqsa, regressive va progressive assimilyatsiya, protetika, eliziya kabi hodisalar ham morfemalarning shakllanishi va talaffuziga bevosita ta’sir ko‘rsatishi aniqlangan. Masalan:

• o‘qituvchi + ni → o‘qituvchini (assimilyatsiya);
• yo‘l + ga → yo‘lga (normal holat);
• ish + chi → ishchi (konsonant to‘qnashuvi yuzaga kelishi).

Bu holatlar fonema va morfemalar o‘rtasidagi o‘zaro ta’sirni aniq ko‘rsatadi. Demak, tilshunoslikda bu ikki birlikni alohida emas, balki o‘zaro bog‘langan tizim sifatida o‘rganish ilmiy yondashuv nuqtai nazaridan to‘g‘riroq bo‘ladi.

Xulosa va takliflar. Fonema va morfema o‘rtasidagi bog‘liqlik tilshunoslikning asosiy nazariy masalalaridan biri bo‘lib, u til tizimining fonetik va morfologik qatlamlarini integratsiyalashgan holda o‘rganish zarurligini ko‘rsatadi. Tadqiqot davomida fonemik birliklarning morfemik strukturalarga qanday ta’sir ko‘rsatishi tahlil qilindi va bu bog‘liqlikning real til birliklaridagi aksini ko‘rish mumkin bo‘ldi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Chomsky, N. (1965). Aspects of the Theory of Syntax. Cambridge, MA: MIT Press.
(2). Bloomfield, L. (1933). Language. New York, Holt.
(3). Соссюр, Ф. де. (2000). Курс общей лингвистики. М., “Наука”.
(4). Yo‘ldoshev M. (2015). Hozirgi o‘zbek tili fonetika va morfologiya. Toshkent, “O‘qituvchi”.
(5). Rahmonov G‘. (2019). Tilshunoslikka kirish. Toshkent, “Fan va texnologiya”.
(6). Madvaliyev A. (2020). Fonologiya va morfologiya: integratsiyaviy yondashuvlar. Urganch, UDPU nashriyoti.

Xaytbayeva Muxlisa Muxtor qizi (UrDU Filologiya va san’at fakulteti 3-kurs talabasi)

TOPISHMOQLARNING LINGVOMADANIY TADQIQIDA METAFORANING O‘RNI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada o‘zbek xalq topishmoqlarining milliy-madaniy xususiyatlari tahlil qilingan. Metaforik va majoziy xarakter topishmoqlarga xos asosiy xususiyat ekanligi asoslangan.*

Kalit so‘zlar: *topishmoq, metafora, lingvomadaniy birlik, epitet, ramz, semantik transformatsiya.*

РОЛЬ МЕТАФОРЫ В ЛИНГВОКУЛЬТУРНЫХ ИССЛЕДОВАНИЯХ ЗАГАДОК

Аннотация. *В статье анализируются национально-культурные особенности узбекских народных загадок. Они основаны на том, что метафоричность и образность являются ключевой характеристикой загадок.*

Ключевые слова: *загадка, метафора, лингвокультурная единица, эпитет, символ, семантическая трансформация.*

THE PLACE OF METAPHOR IN THE LINGUISTOCULTURAL RESEARCH OF RIDDLES

Annotation. *This article analyzes the national-cultural characteristics of Uzbek folk riddles. It is based on the fact that the metaphorical and figurative character is the main characteristic of riddles.*

Key words: *riddle, metaphor, linguistic and cultural unit, epithet, symbol, semantic transformation.*

Kirish. O‘zbek xalq topishmoqlari milliy-madaniy til birligi sifatida xalqimiz tomonidan asrlar osha qo‘llanib kelinmoqda. Folklorning hajm jihatidan qisqa, ammo o‘zida juda katta kognitiv va pragmatik xususiyatlarni jam etgan topishmoqlar bevosita xalq madaniyati, yashash tarzi, mintaleteti bilan bog‘liq tarzda

maydonga keladi. Topishmoqlar lingvomadaniy til birligi hisoblanib, u, ko‘pincha, majoziy belgi ifodalab, jumboqlar ramzlar asosida tinglovchiga havola qilinadi. “Metafora (yunoncha metaphora – ko‘chirish) – hosila ma’no yuzaga kelishi, u biron predmet nomini boshqa predmetga o‘xshashligini e’tiborga olib ko‘-chirishdir” [5:128-b.].

Adabiyotlar tahlili. Shaxsni rivojlantirishning asosiy maqsadlaridan biri nutqni rivojlantirish bo‘lib, u tilni o‘zlashtirishning faol ijodiy jarayoniga asoslanadi. Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirish ko‘rsatkichi bu o‘z fikr va his-tuyg‘ularini nafaqat leksik va grammatik jihatdan, balki nutqning ekspressiv vositalaridan foydalangan holda jonli, aniq, ishonchli tarzda to‘g‘ri ifodalash qobiliyatidir. Tilning eng diqqatga sazovor obrazli vositalaridan biri metafora – bir narsa yoki hodisani boshqasiga o‘xshatish, shuningdek, san’atning turlarida obrazli taqqoslash; tilshunoslikda: so‘zning obrazli qo‘llanishi. Nutqda so‘zlarning majoziy ma’noda qo‘llanilishi metaforik tabiat ko‘rsatadi [10;189-b.].

Xalq topishmoqlari folklorning asosiy kichik janrlaridan biri sifatida adabiyotshunoslar, tilshunoslar va madaniyatshunoslarning tadqiqot obyekti hisoblanadi. Olimlarning ushbu turdagi matnga keng qiziqishi tasodifiy emas: topishmoq bir tomondan, xalqning madaniy g‘oyalari, urf-odatlari va bilimlarini saqlash va yetkazishdagi muhim vazifasi bilan belgilanadigan o‘ziga xos xususiyatga ega. Ikkinchi tomondan, maxsus leksik-sintaktik va obrazli-stilistik dizayn hamdir. Topishmoq tilning paremiologik fondining asosiy tarkibiy qismlaridan biri sifatida barcha xalqlar madaniyatining ajralmas qismidir. Struktur-semantik nuqtayi nazardan topishmoqlarning bir nechta turlari ajralib turadi, ammo barcha tasniflarda markaziy o‘rinni metaforaga asoslangan topishmoqlar egallaydi. Qadim zamonlardan beri topishmoqning yaxshi tuzilganligi uning leksik va kontekstual metaforaga qurilgani bilan belgilanadi. S.Lazutinning ta’kidicha topishmoqlardagi metafora “ularning mazmuni va shaklining o‘ziga xosligini tavsiflaydi, ularning stilistik va kompozitsion tashkil etilishiga asoslanadi va ijodiy tamoyillarni o‘zi belgilaydi” [8;201-b.]. V.Anikin esa bu borada quyidagi fikrlarini ilgari suradi: “topishmoqlar mifologiya va qadimgi ramzlardan ilhomlangan tasvirlardan iborat voqelikni badiiy aks ettirishga xizmat qiladi va metaforalar asosida namoyon bo‘ladi. Metafora - bu sirning ruhi. Metaforani tushunish deganda topishmoqning o‘zini anglash, mohiyatini ochib berish, janr xususiyatlarini aniqlash tushuniladi” [6;85-b.].

Topishmoqdagi predmet belgilarining ifodaliligini epitetlar va taqqoslashlar yordamida yaratish mumkin. Epitet tadqiqotchilar tomonidan metafora turi sifatida qaraladi. Majoziy ta’rif bo‘lib, u tasvirlangan narsaning barqaror o‘ziga xos xususiyatini o‘z ichiga oladi, matnga polisemiyani beradi va adabiy asarda individual uslubning namoyon bo‘lish shakllaridan biri bo‘lib xizmat qiladi

Turli soha olimlari topishmoqlar, ularning tili, poetikasi va tuzilishini o‘rganadilar. S.Y.Sendorovich topishmoqni yetarli darajada o‘rganilmagan matn turi ekanligi ta’kidlagan holda, uning sohalararo o‘rganilish obyekti ekanligini quyidagicha sanab o‘tadi: folklorshunoslar topishmoqni xalq og‘zaki ijodi namunasi sifatida janr nuqtayi nazaridan o‘rganadilar; tilshunoslar uning nutq xususiyatlariga oydinlik kiritadilar; adabiyotshunoslar o‘ziga xos uslub va semiotikaga ega bo‘lgan maxsus matn sifatida qaraydilar; antropologlar topishmoqlarning marosim belgisi tomonini o‘rganishmoqda; sotsiologlar og‘zaki an'ana va jamiyatning bilan ma’lum aloqadorlik holati bilan bog‘laydilar; psixologlar topishmoqlarni idrok etish va tajriba vositasi ekanligi bilan qiziqadilar va hokazo [11;11-b.]. Olimning ushbu fikrlari ayni haqiqat ekanligi ta’-kidlagan holda, tilshunoslar faqat nutq xususiyatiga emas balki bugungi kunda antroposentrik tilshunoslik nuqtayi nazaridan, topishmoqlarning til hodisasi bilan bog‘liq boshqa ijtimoiy, madaniy jihatlarini ham fanlar kesishuvida lingvistlar tomonidan tadqiq qilinishi kerak bo‘lgan jihatlari ko‘pligini aytish joiz. Topishmoqlarning ayniqsa majoziy xarakterga ega bo‘lishini inobatga olib, uning turli tomonlarini tekshirish maqsadga muvofiq. Hamma topishmoqlar ham majoz va metaforaga qurilgan deb bo‘lmaydi. Lekin aksariyat topishmoqlar ana shunday xarakterda bo‘lganligi uchun tahlillar olib boramiz.

Tadqiqot metodologiyasi. Topishmoqlarning katta qismi asosida metafora yotadi, bu topishmoqni umumiy tilga o‘xshash qiladi. Topishmoq paremiya bilan bevosita bog‘liq bo‘lmasa-da, ko‘pincha, frazeologik tabiati tufayli u bilan birlashishi mumkin va teng darajada bo‘ladi. “Topishmoqlardagi metafora ularning mazmuni va shaklining o‘ziga xosligini tavsiflaydi, ularning stilistik va kompozitsion tashkil etilishini asoslaydi, voqelikni badiiy aks ettirish tamoyillarini. ijodiy elementlarni namoyon qiladi” [8;92-b.]. Metaforaga nazariy qiziqishning o‘sishi uning she’riy nutq va publitsistikadan tortib ilmiy bilimlarning turli soha-lari tillarigacha bo‘lgan turli xil matnlarda ko‘payishi bilan turtki bo‘ldi. Tabiiyki, metaforaning turli xil nutq turlariga kengayishi e’tibordan chetda qolmadi. San’atshunoslar, faylasuflar va psixologlar, fan olimlari va tilshunoslar metafora muammosiga katta qiziqish bilan murojaat qilishdi, metaforaga berilgan “ishonch ovozi” uni o‘rganish uchun “moddiy baza”ning sezilarli darajada kengayishiga sabab bo‘ldi: metafora bo‘yicha tadqiqotlar turli terminologik tizimlarda, bolalar nutqi va didaktik adabiyotida, turli xil

ommaviy axborot vositalarida, reklama tilida, mahsulot nomlarida, sarlavhalarda, sportda, hatto afaziya nutqida ham paydo bo'ldi [7;47-b.]. Shu nuqtayi nazardan bir qancha ilmiy tadqiqotlarda o'rganiluvchi obyektning metaforik jihatlari ham nazardan chatda qolmayotganini ko'rish mumkin. "Metafora – bir obyektning boshqa obyektga nisbatan shakllangan tasviri yoki muayyan narsa-hodisaga biriktiriladigan o'xshashlikka asoslanuvchi semantik transformatsiya hisoblanadi" [1;57-b.].

Topishmoqlarning ma'no ko'chish usullarini tahlil qilgan olima N.Mahmudovaning fikricha, "Topishmoqlar shaklan nihoyatda ixcham, muxtasar bo'lishiga qaramay, badiiy tasvir vositalariga juda boydir. Topishmoqlarning uslubi metafora (istiora), ko'chim, kinoya, qochirma yo'li bilan so'zlarni ko'chma ma'noda ishlatish orqali, yashirilayotgan narsa va hodisalarning belgilariga ikkinchi bir narsa-hodisalarning belgilarini qiyoslash, o'sha belgilarga imo-ishora qilishdan iboratdir" [3;422-b.]. Ko'rinadiki, metafora usuli topishmoqlarda eng sermahsul ma'no ko'chish turlaridan biri bo'lib, o'zbek xalq topishmoqlarini imkon qadar mazkur yondashuv orqali tahlil qilib chiqish maqsadga muvofiq. Mazkur maqolada metaforaga asoslangan ayrim topishmoqlarni ko'rib chiqamiz.

Tahlil va natijalar. Topishmoqlar, asosan, kichik yosh vakillari uchun mo'ljallanganligi uchun metaforalardan soddaroq usullarda foydalanish zarur bo'ladi. Negaki, metafora juda murakkab mazmunga ega bo'lsa, jumboq mazmunini tinglovchi anglashi qiyinlashadi. Bu hatto topishmoqni topishga intilayotgan kishiga psixologik zarba bo'lishi ham mumkin. Ba'zi hollarda esa javob boshqa bir narsa-hodisani bildiruvchi leksema bilan almashinishi kuzatiladi. Ayrim topishmoqlarda esa metafora ifodaydigan leksema to'g'ri tanlangan-u, u birikib keladigan so'zlar o'rinsiz qo'llangani bois javobni topish ancha qiyinlashishi mumkin. *Yuqorida yorti non qo'ydim* topishmog'ida metaforik obraz non leksemasiga yuklangan bo'lib, qo'ydim emas ko'rdim tarzida qo'llansa, javobni topish ancha osonlashadi va metaforik obraz berilayotgan so'zga mos fe'l shakli o'zini oqlaydi.

Topishmoqlar ichida aynan bir xil mazmundagi javobni bildiruvchi bir necha xil variantdagilari ham bor. Ulardagi farq, asosan, metaforaning boshqa so'z bilan ifodalanishida kuzatiladi:

Oq g'ozim uchdi ketdi.
Ichagini cho'zdi ketdi.

Ushbu topishmoqda *oq g'oz* varrakni, *ichak* esa varrak ipini bildirib kelgan. Xuddi shunga o'xshash ikkinchi topishmoqni keltiramiz:

Osmondagi oq eshak
No'xtasi qo'limda.

Mazkur topishmoqda varrak *oq eshak*, ipi esa *no'xta* metaforalari bilan namoyon bo'lgan. Bir mazmunni bildiruvchi turli metaforalardan foydalanish kishilarning turmush tarzi, kasb-kori, ijtimoiy borliq haqidagi fikrlari bilan belgilanadi. Har kim o'z dunyoqarashi va bilish qobiliyatidan kelib chiqib topishmoq yaratadi yoki mavjudlarini nutq jarayonida qo'llaydi. Bunday holatni oy va yulduzlar haqidagi turli variantlardagi topishmoqlarda ko'rish mumkin: "Bir parcha patir, olamga tatir", shuningdek, "Chinni, chinni, chinni qiz,

Chin tepaga chiqdi qiz.
Bolalarni iyartib,
Tomoshaga chiqdi qiz", kabi.

"Osmon jismlarini ifodalashda metafora, o'xshatish va perifrazalarning o'rni o'zbek tilshunosligida muhim ahamiyat kasb etadi" [4;32-b.]. Ma'lumki, ramziy belgilar ko'pincha ranglar orqali ifodalanadi. Osmonning ramziyligi ko'k rangi bilan bevosita aloqadorligini juda ko'p manbalar ham tasdiqlaydi. Xususan, "ko'k" leksemasi haqida maxsus ilmiy ish olib borgan S.Isroilova shunday yozadi: "Ranglar asosiy ramzlardan biri bo'lib, u tushunchaning vakili, ifodalovchisi, uning simvolidir. Ramzlarni ifodalashda, ma'no mohiyatini ochib berishda esa ranglarning o'rni katta. Ko'k rangni qadimgi turkiylar, birinchi navbatda, osmon bilan bog'lashgan. Shundan kelib chiqib aytish mumkinki, ko'k so'zi dastlab osmon rangini ifodalangan" [2;36-b.]. Ko'k leksemasi bilan metaforik tushuncha ifodalagan topishmoqlar ham o'zbek xalq og'zaki ijodida sermahsul hisoblanadi: "Ko'k ko'ylakka g'o'za yoydim (osmon va yulduzlar)", "Ko'k ko'ylakka qo'l yetmas (osmon)" , "Ko'k kosani to'ntardim (Osmon)" kabilar shular jumlasidan.

Topishmoqlarda odatda -day, -dek metafora hosil qiluvchi qo'shimchalar ham faol qo'llanadi:

Ichi qora ko'mirday,
Tishi sariq isparakday.
O'ltirishi mulladay,
Qichqirishi tayloqday.

Ushbu topishmoqning to‘rtala jumlasida ham somavarga o‘xshatiluvchi metaforalar mavjud bo‘lib, jumboqning javobini aniqroq ifoda etish maqsadida topishmoq hajmi metaforalar yordamida kengaygan. Bunday holatni javobi tandirni bildiruvchi “Og‘zi do‘ppidek, ichi qizil xumdek” topishmog‘ida ham ko‘rish mumkin

Xulosa. Umuman olganda, topishmoqlar inson tafakkur tarzini boyitishi, dunyoqarashni kengaytirishi, mantiqan fikrlash qobiliyatni oshirishi jihatidan hamma zamonlarda ham keng omma e’tiborini tortib kelgan. Narsa-hodisalarni metafora asosida jonlantirish topishmoqning mohiyatini, unga yuklangan mazmunni yana ham oydinlashtirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Aqmanova Sh. O‘zbek tili biblionimlarining struktur va funksionla-semantik tadqiqi. PhD diss…, Urganch, 2023, 57-bet.

(2). Israilova S. “Ko‘k” leksemasi semantikasi va tezaurusi. Toshkent, 2023, 124-bet.

(3). Mahmudova N. Topishmoqlarda ma’no ko‘chish turlari. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. 2023, 422-bet.

(4). Qurbanova G. O‘zbek tilida ba’zi osmon jismlarining o‘zlashma so‘zlar va tasviriy vositalar bilan ifodalanishi. “PEDAGOGS” international research journal, 2024, 32-bet.

(5). Usmonova Sh. Lingvomadaniyatshunoslik. Tosheknt, 2022, 128-bet (286).

(6). Аникин В. Загадка. Словарь литературоведческих терминов. М., “Просвещение”, 1974, 85–86-

(7). Арутюнова Н.Д. Метафора и дискурс. Теория метафоры. М., “Прогресс”, 1990, с. 5–32.

(8). Лазутин С.Г. Поэтика русского фольклора. Учеб. пособие для филол. фак. ун-тов, М., “Высш. шк.”, 1981, 221 с.; URL: http://www.infoliolib.info/philol/lazutin/2_1.html (дата обращения: 27.01.2014).с (9). Лазутин С.Г. Метафоры в загадках. Вопросы поэтики литературы и фольклора. Воронеж, 1976, с. 36–50.

(10). Виктория П. Роль загадки в развитии метафоричности речи детей дошкольного возраста. Науково-методичны часопис. 2012, 259 с.

(11). Сенднрович С.Я. Морфология загадки. М., Языки славянской культуры, 2008. 288 с.

Мардонова Феруза Бахроновна (доктор философии (PhD), доцент кафедры русского языка и литературы. Навоийский государственный университет)

РАЗВИТИЕ ИДЕИ СОДРУЖЕСТВА, МИРА, ТОЛЕРАНТНОСТИ В ДУХОВНОМ НАСЛЕДИИ МЫСЛИТЕЛЕЙ ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ

Аннотация. *В данной статье проанализированы взгляды великих восточных мыслителей о мире, согласии, содружестве. Также отражены гуманистические взгляды ученых в социально-философских идеях.*

Ключевые слова: *мир, согласие, содружество, толерантность, духовное наследие.*

Mardonova Feruza Baxronovna (falsafa doktori (PhD), Navoiy davlat universiteti “Rus tili va adabiyoti” kafedrasi dotsenti)

MARKAZIY OSIYO MUTAFAKKIRLARI MA’NAVIY MEROSIDA HAMDO‘STLIK, TINCHLIK, BAG‘RIKENGLIK G‘OYALARINING RIVOJI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada buyuk Sharq mutafakkirlarining tinchlik, totuvlik va hamjihatlik haqidagi qarashlari tahlil qilinadi. Shuningdek, allomalarning ijtimoiy-falsafy goyalaridagi tolerantlik va gumanistic qarashlari oz aksini topgan.*

Kalit so‘zlar: *tinchlik, totuvlik, hamjihatlik, bag‘rikenglik, ma’naviy meros.*

Mardonova Feruza Baxronovna (Doctor of Philosophy (PhD), Associate Professor of the Department of Russian Language and Literature. Navoi State University)

DEVELOPMENT OF THE IDEA OF COMMONWEALTH, PEACE, TOLERANCE IN THE SPIRITUAL HERITAGE OF CENTRAL ASIA THINKERS

Annotation. *The point of view of Eastern scientists about peace, kind and friendship are analyzed in this article. Scientists’ social-philosophical ideas of tolerance and humanistic point of view are also reflected in this article.*

Key words: *tolerance, peace, international harmony, spiritual inheritance, commonwealth.*

Введение. Как отмечают многие исследователи, некоторые Центральноазиатские мыслители вкладывали в традиционное понятие «бағрикенглик» те или иные аспекты нынешнего понимания «толерантности», тем самым ещё более облегчая возможность его современного использования.

История социально-философской мысли Центральной Азии средних веков свидетельствует об успешной идейной борьбе против религиозного фанатизма и вражды через международное сог-